

**"TA'LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING ZAMONAVIY
TENDENSIYALARI"**

Arolova Zarina Lochin qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bugungi globallashuv jarayoniga xos psixologik xizmatni tashkil etish, sog'lom shaxsnинг o'sishini ta'minlash muammosi hamda, oliv o'quv yurtlarida talabalarga ta'lim tizimida pedagogik va psixologik xizmat samaradorligini oshirish haqida yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *psixologiya, psixologik-pedagogik, psixofiziologik, defektologik, tibbiy, akademik yordam.*

Jahon psixologiyasida psixologik xizmatni tashkil etish muammosini o'rganishga alohida tadqiqot yo'nalishi sifatida e'tibor qaratilmoqda. Psixologik tadqiqotlarda pedagog psixolog shaxsnинг har tomonlama rivojlanishi uchun qo'lidan kelgan barcha ishlarni ijtimoiy psixologik xizmatni va uning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan. Mazkur yo'nalishga psixologik xizmatni tashkil etishning turli usullari va zamонавиу texnologiyalarini ifodalovchi psixologik mexanizmlarini qo'llash hamda joriy etish masalasining muhimligiga e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda ta'lim tizimlarida psixologik xizmatni joriy etish borasida olib borayotgan qator nazariy-ilmiy va amaliy-uslubiy ishlari psixologik xizmatni joriy etish va rivojlantirish uchun ma'lum darajada asos bo'lmoqda. Bir qator oliv o'quv yurtlarida yaratilgan psixologik xizmatlar bugungi kunda mavjud emas shunga qaramay, talabalarda bilim olish va yangi ta'lim jarayoniga moslashish ko'nikmalar shakllanib kelmoqda.

Maqolaning assosiy maqsadi bugungi kunda universitetlarda talabalarni o'qitish jarayonida psixologik-pedagogik yordamning xususiyatlarini nazariy hamda amaliy asoslash va aniqlashdir. Psixologik va pedagogik qo'llab – quvvatlash doimiy, uzoq muddatli jarayon sifatida ham belgilanadi kutish, tashxis qo'yish va hal qilishda maxsus o'qitilgan o'qituvchi – psixologning ishtiroki talabaning shaxsiy muammolarini yechish uchun yo'naltiriladi. T.L.Volkova psixologik va pedagogik yordamni quyidagicha ko'rib chiqadi talabaning kasbiy tayyorgarligini psixologik qo'llab-quvvatlashning bir qismi ekanligini ta'kidlaydi. O'quv jarayonida kasbiy va psixologik yordamning mohiyatini quyidagicha aniqlash mumkin psixofiziologiya va kasbiy tanlov sohasidagi mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladigan chora – tadbirlar majmui katta maktab o'quvchilari va talabalarning psixologik diagnostikasi va psixologik-pedagogik tayyorgarligi, turli xildagi qiyinchiliklarni boshdan kechirayotgan shaxslarning individual psixologik xususiyatlarini aniqlash va chuqur o'rganish, moslashishdagi qiyinchiliklar, shaxsni shakllantirish va rivojlantirish fazilatlar, umuman mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirishdur. Pedagogik-psixologiya ta'lim va tarbiya muammolarini tadqiq qiladigan psixologiya sohasi. U

shaxsning maqsadga muvofiq rivojlanishini, bilish faoliyatining va insonda ijtimoiy ijobiy sifatlarni tarbiyalashning psixologik muammolarini o'rganadi.

Pedagogik psixologiyaning maqsadi – shartsharoit va boshqa psixologik omillardan kelib chiqqan holda o'qitishning oqilona rivojlantiruvchi ta'sirini kuchaytirish. Psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlashning asosiy faoliyatiga quyidagilar kiradi:

- shaxsning aqliy va intellectual faoliyat turini baholash;
- ta'linda o'qitish va ijtimoiy-psixologik moslashuvning muvaffaqiyatini prognoz qilish;
- ta'lim va kasbiy faoliyat uchun motivatsiyani shakllantirish va qo'llab – quvvatlash;
- psixologik treninglar va psixologik-pedagogik mashg'ulotlarni o'tkazish;
- qiyinchiliklarga duch kelgan shaxslar bilan psixofiziologik tuzatish tadbirlarini o'tkazish va moslashtirish;

Psixologik xizmatlarning ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi ko'plab afzalliklarga ega ekanligi isbotlangan. Psixologlar tomonidan taqdim etiladigan akademik yordam o'rganishdagi qiyinchiliklarni aniqlash va hal qilishga yordam beradi, bu esa o'quv samaradorligini oshirishga va talabalarning faolligini oshirishga olib keladi. Bundan tashqari, psixologik xizmatlar ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarini rivojlantirishga hissa qo'shadi, o'quvchilar o'rtaida ijobiy munosabatlar, chidamlilik va aqliy farovonlikni rag'batlantiradi. Psixologik xizmatlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun pedagoglar va psixologlarning hamkorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Birgalikda ishslash orqali ular o'quvchilarining individual ehtiyojlarini aniqlashlari, moslashtirilgan tadbirlarni ishlab chiqishlari va o'quvchilarining har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan yordam muhitini yaratishlari mumkin. Biroq, cheklangan resurslar, stigma va kasbiy rivojlanish zarurati kabi muammolar makkablarda psixologik xizmatlarni samarali taqdim etishga to'sqinlik qilishi mumkin. Psixologik xizmat o'z faoliyatida tibbiy, defektologik va boshqa xizmat turlari bilan, bola tarbiyasida yordam ko'rsatuvchi jamoatchilik xodimlari bilan yaqin aloqada ish olib boradi. Barcha mutaxassislar bilan munosabat tenglik asosida va fikrlarning bir-birini o'zaro to'ldirishi asosida quriladi.

Natijada, psixofiziologik qo'llab-quvvatlash tadbirlarining asosiy maqsadi funksional qulaylikka erishish uchun, talabada ta'lim olish jarayonida yuqori samaradorlik va kasbiy tayyorgarlik hamda psixologik ijobiy kayfiyatini shakllantiradi. O'rganish lozim bo'lgan har bir jarayon, holat va xususiyatlarni bir-biriga bog'lab tekshirish lozim. Tekshirish jarayonida kishining butun psixikasida, ongida aks etadigan jamiyatning moddiy nigizi undagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan birgalikda o'rganiladi. Ta'lum-tarbiya jarayonida psixik hodisalarining miqdor o'zgarishlarini sifat o'zgarishlarga o'tishi va bir sifat holatining ikkinchi sifat holatiga o'tishini kuzatib borish lozim. Masalan, o'quvchi psixikasining taraqqiy etishini o'rganib "ko'rib, bilib olish, tajribalar to'plash jarayonida o'quvchining bilish qobiliyatini ya'ni, xotira, tafakkur, fikr yuritishdagi sifat o'zgarishini bilib olsa bo'ladi.

Xulosa:

Tadqiqot davomida mazkur qarorlarning va tadbirlarning maqsadidan kelib chiqib va shularga asoslanib O'zbekistonda psixologik xizmti tashkil etish va rivojlantirishning

dastlabki bosqichi quyidagi 7 yo'nalishlar asosida amalga oshirilishi mumkin, degan xulosaga kelingan:

1. Ta'lim tizimi muassasalarida psixologik xizmat;
2. Mexnat jamoalarida psixologik xizmat;
3. Oilaviy hayotni tashkil etish tizimi muassasalarida psixologik xizmat; Transport muassasalarida psixologik xizmat; Sog'likni saqlash tizimi muassasalarida;
4. Ichki ishlar, huquq-tartibot tizimi muassasalarida psixologik xizmat;
5. Sport muassasalarida psixologik xizmat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Jurayev Xaydarjon Odilboyevich- “ Oliy o'quv yurtlarida talabalarga pedagogik va psixologik xizmat samaradorligini oshirish” 2023 y.
- 2.Baxtigul Ergasheva Baxodirovna – “ Zamonaviy psixologiyaning pedagogika bilan uzviy bog'liqligi” 2022 y.
- 3.Kamolova Shirin va Axmedova Fotima- “ Sog'lom shaxs hayotida psixologik xizmatning o'rni” 2022 y.
4. Karimova V. “Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot” 1999 y.